

O'QUVCHILARDA INTERNET TOBELIGINI KELTIRIB CHIQUARUVCHI OMILLAR PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Dadonova Aziza Tulkunovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Pedagogika va Psixologiya” mutaxassisligi

1-bosqich magistranti;

Ilmiy rahbar

I.N.Naimov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab yoshidagi bolalarda asosiy muammo bo'lgan bilim samaradorligining pasayishi, xotira zaifligi, diqqat va e'tiborning susayishi kabi muammolarga “internetga qaramlik” illatining sabab bo'layotgani, uni keltirib chiqarayotgan omillar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida haqida fikr va mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *internet, yoshlar, media, sayt, virtual qaramlik, kiberseksual tobe'lik, kompyuter, web-serfing.*

Insoniyat paydo bo'libdiki, izlanishda. Ehtiyojiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan narsani yo tasodifan yoki o'ylab-izlanib yaratib boradi. Uning o'z mehnatini yengillashtirish, odamlarga naf keltirish maqsadida yaratgan narsalari ham gohida yomonlik yo'lida ishlatilishi mumkin. Hozirda hayotning barcha jabhalariga kirib kelgan mobil qurilmalar va Internet tarmog'ining afzalliklarini sanasak barmog'imiz yetmaydi. Biroq ularning cheksiz imkoniyatlari salbiy oqibatlar ham keltirib chiqarmoqdaki, bu kishini tashvishga soladi.

“Niyatiga yarasha amali” degan naql bor. Oddiy pichoq oshpaz qo'lida shirin ovqatlar tayyorlashga ishlatilsa, badniyat kishining qo'lida sovuq qurolga aylanadi.

Bolalar internetni ijobiy baholaydi, unga ko'proq ishonadi, shuning uchun ham u har qanday ta'sir ko'rsatishning juda qulay “ob'yekti” hisoblanadi. Bolalarda saytlarga, video va o'yinlarga tanqidiy munosabatning plankasi kattalarnikiga nisbatan pastroq Video, audio, matnlar va o'yinlarning naqadar xavfligi va hatto halokatlilikini bolalar doim ham tushunavermaydi.

Tadqiqotchilarning o'quvchilarga nisbatan kuzatuvlarida shu aniqlanadiki, ularning 15 foizida internet-tobelikka moyillik vujudga kelgan. Internet-tobe o'quvchilar doimiy tahlika bilan yashaydi, ular real olamda o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi juda qiyinlashadi. Kattalardan farqli o'laroq bolalar internetdagi suhbatdoshini “do'st” sifatida qabul qiladi va ijtimoiy tarmoqlardagi tanishuvlarga ko'proq ishonuvchan bo'ladi. Shuning uchun ham bolalar tarmoqdan chiqayotgan xaqoratni og'irroq his etadi, biroq, shu bilan birga mutlaqo notanish kishilar bilan yana yangi tanishuvlarga zo'r qiziqish bilan kirishib ketaveradi.

Bu bolaga ta'sir o'tkazish uchun juda keng imkoniyatlarni ochib beradi. Dunyodagi texnologik jihatdan juda rivojlangan mamlakatlarda va xususan Amerika Qo'shma Shtatlarida, sir emaski, voyaga yetmagan maktab bolalari o'rtasida shu kunga qadar juda ko'p noxush hodisalar ro'y bergan. Buning sababi - bolalar virtual olam bilan real voqelik

o'rtasidagi farqni ajrata olmay qoladi. Kuniga sakkiz soatlab turli qotilliklar tasvirlanuvchi kompyuter o'yinlarini o'ynash natijasida maktabda a'lo baholarga o'qigan, fanlar olimpiadasi ishtirokchisi ota-onasi uni darslarga bormay qo'ygani uchun urishgani yoki kompyuterdan ayirgani uchun qotilga aylanishi mumkin.

Turli messenjerlar orqali o'smirlarni o'z joniga qasd qilishga undovchi "o'lim guruhleri" faoliyati ayniqsa xavotirli. Guruh a'zolari turli topshiriqlarni bajarib, uni videoga olishi va guruhda namoyish qilishlari kerak bo'lgan. Masalan, badaniga pichoq yordamida turli tasvirlar chizish yoki tez ketayotgan avtomobil oldidan so'nggi damda yugurib o'tish kabi... Bu o'yinlarda "topshiriqlar" bosqichma-bosqich murakkablashib boradi va eng oxirgi topshiriq o'z joniga qasd qilish bo'ladi. Topshiriqni bajarishdan bosh tortgan bolalarni esa ularning oila a'zolarini o'ldirish bilan qo'rqitishadi.. Psixologlarning fikricha, kompyuterga bog'lanib qolish o'z ichiga uch bosqichni oladi. Birinchi bosqichda o'smir kompyuter imkoniyatlarini o'rganadi, o'zini virtual voqelikka tayyorlaydi. Ikkinchi bosqichda o'smir bor imkoniyatlarini ishga solishni o'rganadi va ko'p vaqtini kompyuter oldida o'tkaza boshlaydi.

Internet uning uchun yagona axborot va muloqot manbaiga aylanadi. O'smir virtual voqelikni haqiqiy hayot deb qabul qiladi.

Tobellikning uchinchi bosqichida esa u butun vaqtini kompyuter oldida o'tkazadi, uni bu olamdan olib chiqishga bo'lgan har qanday urinishga nisbatan g'azab bilan munosabatda bo'ladi.

O'smirlarning virtual olamga tobeligi quyidagi guruhlariga bo'linadi:

O'yinga tobelik — turli qiziqarli o'yinlarga mahliyo bo'lgan o'smir borliqni unutadi. U faol hayotdan uzoqlashadi, hattoki ovqatlanish, o'ziga qarash, dam olish, tabiiy ehtiyojlari uchun sarflash lozim bo'lgan vaqtini ham o'yinga bag'ishlaydi;

Virtual tanishuvlarga ruju qo'yish — faqat Internet tarmog'idan do'st qidirish bilan band bo'ladi, real hayotdagi do'stona munosabatlarni unutadi;

Web-serfing — uzzukun Internetda o'tirish. U aniq maqsadsiz u saytdan bu saytga o'tadi. Asosiysi, Internet bo'lsa bo'ldi.

Kiberseksual tobelik — pornosaytlarni tomosha qiladi, virtual seksga mukkasidan ketadi.

Virtual olamga tobe bo'lganlarda quyidagilar namoyon bo'ladi:

Uning kayfiyati Internetga ulanish imkoniyatiga bevosita bog'liq. Internet bo'lmasa asabi buziladi;

Hamma bilan faqatgina kompyuterga aloqador mavzuda suhbatlashadi va odamlarga bu qiziq ekanligiga ishonadi;

Kompyuter qarshisida o'tirganida har qanday qiziq taklif bilan ham uni joyidan qo'zg'atish mushkul bo'ladi;

Ish yoki o'qish bilan band bo'lgan chog'ida ham pochta-sini, ijtimoiy tarmoqdagi sahifasini ko'rishga vaqt topadi (ba'zi o'smirlarga ish buyursangiz, ish qilayotgan vaqtida ham bir qo'lida smartfoni bo'ladi va asosiy e'tibori ishga emas, smartfoniga qaratiladi);

U vaqtni his qilmaydi, soatlab o'yin o'ynashi yoki Internetda sayr qilishi mumkin;

Xotirasi yomonlashadi. Ko'p narsani kompyuteri yordamida eslaydigan, ammo miyasida hech narsa turmaydigan bo'lib qoladi;

Moddiy imkoniyati yo'q bo'lsa ham Internetsiz tura olmaydi. U yeyish-ichish, kiyinishdan tejab bo'lsa ham birinchi navbatda Internet uchun pul sarflaydi;

Kompyuter qarshisida rohatlanadi, boshqa vaqt esa atrofdagilarga befarq bo'ladi;

Ko'chaga chiqmay qo'yadi;

Do'stlari bilan uchrashmaydi, haqiqiy hayotdagi tanishlari bilan muloqot qilmay qo'yadi.

Yoshlarni yuqorida aytib o'tilgan xatarlardan asrash uchun nima qilmoq kerak?

Bu savol bugun pedagogika va bolalar-o'smirlar psixologiyasi sohalari oldiga bir qator muammolarni keltirib qo'ydi, ularga dunyo miqyosida yechim izlanmoqda. Bu muammolarni o'z o'rnida hal etish yosh avlodni kelajakda yetuk inson bo'lishini ta'minlaydi. (Ta'bir joiz bo'lsa, kelajakni "zombi" "avlod" qo'lga qolishdan asraydi, desak mubolag'a bo'lmaydi) Bugungi kun pedagoglarini tashvishga solayotgan muammolardan biri maktab yoshidagi bolalarda xotira zaifligining oshib borayotgani bilan bog'liq. "Hatto "karra jadvali"ni ham bilmaydigan" o'quvchilar yuqori sinf o'quvchilari orasida ham ko'plab topilishi hech kimga sir emas. Bunga birlamchi sabab hisob – kitob amallarini bajarish kalkulyator kabi moslamalar orqali bajarilishi hisoblansa, asosiy sabab qilib xotirani internet orqali doimiy ravishda qabul qilinayotgan keraksiz ma'lumotlar bilan to'ldirilganligini ko'rsatish mumkin. 10-12 yoshli bolalarni o'quv jarayonini kuzatishlar bilim va malakalarni egallash, yod olish ko'nikmasi keyingi yillarda sezilarli darajada pasayganligini ko'rsatadi. Ular bilan suhbat o'tkazilganda ko'p vaqtini dars tayyorlash bilan emas, kompyuter yoki televizor qarshisida o'tkazishi ma'lum bo'ladi.

Afsuski, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalar psixologiyasi ham, internet tobeligi muammosidan xoli emas. 2-6 yoshli bolalarda nutqning kechikishi, hatto autizm belgilarining namoyon bo'layotgani psixologlar tarafidan e'tirof etilmoqda. Go'daklarni ovutish, nima bilandir band qilish maqsadida gadjetlardan foydalanish ularda rivojlanib kelayotgan atrof – olamni idrok etish, muloqotchanlik qobiliyatining kechikishi yoki yo'qolishiga olib kelayotgani onalar bilan birdek ruhshunoslarni ham xavotirga soladi. Bu yoshdagi bolalar orasida asabiylik, kommunikativlik yetishmasligi, loqaydlik yoki ruhiy zo'ravonlik holatlari ortib, ularda turli ruhiy xastaliklar, jumladan, autizmni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, aksariyat hollarda bunga ota-onalarning o'zlari sababchi bo'lib qolishmoqda. Farzandga ortiqcha mehr ko'rsatish, uning barcha istaklarini muhayyo qilish va yoki aksincha, unga butkul e'tiborsiz bo'lish, uning yurish-turishi bilan qiziqmaslik bolalarning virtual olamga kirib ketishlariga olib kelmoqda.

Birinchi navbatda e'tibor kerak. Ota-onalar farzandining smartfon, planshet yoki kompyuterida qanday o'yinlar o'ynayotganini, ijtimoiy tarmoqlarda kimlar bilan muloqot qilayotganidan xabardor bo'lib turishi lozim. Haftada bir marta bo'lsa ham uning gadjetlarini tekshirib tursangiz (bunga ko'p vaqt ketmaydi), farzandi turli bema'niliklarga yo'liqishining oldini olgan bo'ladi.

Ushbu mavzu bugungi kunda juda dolzarb. Uni umumlashtirgan holda bir xulosa bilan yakunlamoqchiman. Kompyuter va internet vaqt bilan hamnafas bo'lib rivojlanib ketmoqda.

Insoniyatning bu texnologik yutuqlari hayotimizning ajralmas qismi bo'lib qolyapti. Biroq, kelajagimiz - bolalarimiz ushbu texnologik ummonning ichiga g'arq bo'lib internetga qul bo'lib qolmasli uchun, internet oyinlari o'rniga shahmat, ijtimoiy tarmoqlar o'rniga oddiy muloqot, turli-tuman saytlar o'rniga kitob mutolaasini sevishiga sababchi bo'ladigan inson - ustoz, ota va ona. Bola bilan samimiy, mehribon va ochiq-oydin suhbatlashish, qat'iyatli bo'lish, keskinlikka yo'l qo'ymaslik lozim, chunki u mehrni yaqinlaridan topa olmasa, hayoti o'ta zerikarli bo'lib ko'rinsa, u o'ziga yetishmayotgan narsalarni internetdan izlaydi. Internet esa faqat yaratuvchanlik, go'zallik, iffat, mehr-muruvvat, madaniyat-u marifat va tolerantlikdangina iborat emas. Unda jaholat, zo'ravonlik, sharm-hayosizlik, aldov va firibgarlik qopqonlari ko'paysa ko'payib ketyaptiki, zarracha kamaygani yo'q.

Xulosa qilib aytganda, internet deyarli nazorat qilib bo'lmaydigan tarmoq. Undagi mavjud axborotlardan foydalanishni to'la nazorat qilish ham mushkul. O'smirning Internetdan foydalanishini cheklash bilan muammoni hal qilib bo'lmaydi. Chunki u internetga kirish uchun baribir imkon topa oladi, lekin uni nazorat qilish va bo'sh vaqtini mazmunli tasjil etish orqali cheklash mumkin. Shuning uchun uni imkon qadar ko'proq mashg'ulotlar bilan band qilish kerakki, kompyuterga ruju qo'ygan o'smir undan uzoqlashsin. Turli sport mashg'ulotlari, to'garaklar, musiqa darslari, uy yumushlari bu borada eng yaxshi vosita hisoblanadi. O'quvchi yoshlarga ko'proq e'tibor qarataylik, o'z ishlarimizdan ortib, uning qiziqishlari, orzulari, yurish-turishi bilan qiziqaylik. Bugungi o'smirlar ertaga xalq bo'ladi. Ma'naviyati butun, o'z dunyoqarashiga ega, o'zgalar fikriga qaram bo'lmagan xalqning kelajagi buyuk bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlarini. -Toshkent. «Extremum-press», 2018. 157-168 b.
2. Mamatova Ya., Sulaymonova S. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma. – T. “Extremum-press”, 2015. 136-145 b.
3. Do'stmuhammad X. “Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari” T., “O'zbekiston”, 2005. 219-225 b.
4. Do'stmuhammad X. Axborot mo'jiza, joziba, falsafa, T.: Monografiya. “Yangi asr avlodi”, 2013. 310-317 b.
5. Fedorov A.V. Mediaobrazovanie: istoriya, teoriya vametodika. – Rostov: SVVR. – 708 s.
6. Naimov I. A coverage of the activities of the Mangitic Emirs in the works of Ahmad Donish // International Journal on Integrated Education. – Indonesia, 2021. Vol. 4. No. 5. – P. 36-45 (Impact Factor: SJIF 7.242).
7. Naimov I. Issues of religious tolerance in the work of Ahmad Donish “Meyor-ul-tadayun” // International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. - Volume: 2 Issue: 02 | 2022. – P. 169-175.

8. Naimov I. Ahmed Daniş'in Tıp, Güzel Sanatlar ve Müziğe Ait Bilimsel Eserlerindeki Islahatçılık Fikirlerinin Yorumlanması // YENİ TÜRKİYE (Yeni Türkiye Stratejik Araştırma Merkezi). – Ankara, 126/2022. – V. 330-338.